



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-noyabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)-221-44-28*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr oyi, foizda)




2024- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6729 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6709 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati **108,5** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 22320,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 108,5 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1041,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,5%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18781,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2497,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,8%) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	22 320,4	108,5
Qarshi sh.	4 816,5	111,9
Shahrisabz sh.	1 919,6	107,1
G'uzor	896,2	110,6
Dehqonobod	730,7	106,0
Qamashi	1 604,1	106,1
Qarshi	791,1	107,1
Koson	1 805,6	107,6
Kitob	1 163,6	107,5
Mirishkor	770,1	105,6
Muborak	619,5	106,5
Nishon	857,0	108,5
Kasbi	956,6	106,0
Ko'kdala	589,1	111,5
Chiroqchi	2 019,4	107,0
Shahrisabz	816,3	113,3
Yakkabog'	1 189,9	106,6

2024- yilning yanvar-noyabr oyida 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (113,3%), Ko'kdala (111,5%) va G'uzor tumanlarida (110,6%), chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 21,6 % bilan 4816,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Ko'kdala tumani 2,6 % bilan 589,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	4816,5
Chiroqchi	2019,4
Shahrisabz sh.	1919,5
Koson	1805,6
Qamashi	1604,1
Yakkabog'	1189,9
Kitob	1163,6
Kasbi	956,6
G'uzor	896,2
Nishon	857,0
Shahrisabz	816,3
Qarshi	791,1
Mirishkor	770,1
Dehqonobod	730,7
Muborak	619,5
Ko'kdala	589,1


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-noyabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 18781,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 5,5 % ga o'sdi va 1041,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,7 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga koʻra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi boʻyicha Muborak (99,5 %), Mirishkor (99,3 %), Nishon, Kasbi (99,2 %), Qamashi (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz va (15,1 %) Qarshi shahrida (8,7 %), Koʻkdala va (8,4 %) Koson tumanlarida (5,8 %) kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Qarshi sh.	16189,9	Kasbi	4453,2
Shahrisabz sh.	12952,5	Ko'kdala	3087,7
G'uzor	4000,8	Chiroqchi	7468,2
Dehqonobod	4547,0	Shahrisabz	3451,5
Qamashi	5426,7	Yakkabog'	4179,4
Qarshi	2878,9		
Koson	5737,5		
Kitob	4097,1		
Mirishkor	5897,0		
Muborak	6583,8		
Nishon	5097,9		

2024- yilning yanvar-noyabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6218,3 ming so'm (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 106,1 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi (16189,9 ming so'm) va Shahrisabz shaharlari (12952,5 ming so'm) hamda Chiroqchi tumani (7468,2 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	2 497,5	108,8
Qarshi sh.	185,0	106,8
Shahrisabz sh.	69,0	116,4
G'uzor	139,5	109,9
Dehqonobod	75,1	107,0
Qamashi	177,5	108,2
Qarshi	47,9	115,9
Koson	87,3	112,7
Kitob	173,6	108,1
Mirishkor	18,0	110,6
Muborak	114,3	111,6
Nishon	128,3	107,8
Kasbi	72,3	111,1
Ko'kdala	127,9	107,4
Chiroqchi	878,3	108,7
Shahrisabz	75,4	105,8
Yakkabog'	128,1	106,1


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-noyabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-noyabr)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2497,5 mlrd.so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 108,8% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) , (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1225,2 mlrd. so'mni (105,3%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1272,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (112,6 %).












2024-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1225,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (662,7 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>662,7 mlrd. so'm</p>  <p>54,1 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>197,2 mlrd. so'm</p>  <p>16,1 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>58,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,8 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>82,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>34,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>35,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>58,7 mlrd. so'm</p>  <p>4,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>39,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>12,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>26,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>15,8 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1272,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 875,3 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 341,0 mlrd. so'mni, otlar – 49,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 6,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi 1164,3

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>563,6 mlrd. so'm</p>  <p>44,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>240,5 mlrd. so'm</p>  <p>18,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>71,2 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>198,5 mlrd. so'm</p>  <p>15,6 %</p>	<p>Otlar</p> <p>49,6 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>142,5 mlrd. so'm</p>  <p>11,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>5,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1527 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1525 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	15 192,2	111,9
Qarshi sh.	199,2	107,0
Shahrisabz sh.	44,0	113,5
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	23,4	101,5
Dehqonobod	12,7	105,9
Qamashi	12,6	106,7
Qarshi	30,0	111,6
Koson	23,8	112,0
Kitob	56,5	107,3
Mirishkor	8,1	109,0
Muborak	33,4	160,6
Nishon	57,2	111,2
Kasbi	12,3	105,0
Ko'kdala	10,9	107,7
Chiroqchi	22,6	105,6
Shahrisabz	14,7	108,2
Yakkabog'	18,9	104,8

2024- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 15192,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,9% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	3 313,9	100,0
Qarshi sh.	2 917,4	88,0
Shahrisabz sh.	11,7	0,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	3,4	0,1
Dehqonobod	6,1	0,2
Qamashi	1,8	0,1
Qarshi	223,4	6,7
Koson	14,1	0,4
Kitob	24,7	0,7
Mirishkor	10,0	0,3
Muborak	9,8	0,3
Nishon	15,2	0,5
Kasbi	22,6	0,7
Ko'kdala	3,3	0,1
Chiroqchi	28,1	0,8
Shahrisabz	0,7	0,0
Yakkabog'	21,7	0,7

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (2917,4 mlrd. so'm), Qarshi (223,4 mlrd. so'm) va Chiroqchi (28,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 3313,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1800,6 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 126,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1187,6 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 95,6 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7038,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6143,3 mlrd.so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	7038,5	108,4
Qarshi sh.	2739,5	113,0
Shahrisabz sh.	585,9	106,8
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	197,2	108,3
Dehqonobod	35,5	115,2
Qamashi	324,4	159,3
Qarshi	596,7	108,5
Koson	476,2	93,3
Kitob	336,6	103,1
Mirishkor	78,3	100,1
Muborak	105,6	104,5
Nishon	57,7	99,9
Kasbi	106,9	50,5
Ko'kdala	19,1	104,7
Chiroqchi	131,2	100,1
Shahrisabz	124,6	129,3
Yakkabog'	249,0	106,9

2024- yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2251 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2243 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (159,3 %) , Shahrisabz (129,3 %) ,Dehqonobod (115,2 %) tumanlarida va Qarshi (113,0 %) shahrida kuzatildi.